

Magistrantlarning XVII ilmiy konferensiyasi materiallari. Samarqand – 2017-yil.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRANTLARNING XVII-ILMIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

(TABIIY VA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR)



Samarqand-2017

Magistrantlarning XVII-ilmiy konferensiyasi materiallari (Tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar). – Samarqand: SamDU nashri, 2017. ____ – bet.

To'plamga magistrantlarning XVII ilmiy konferensiyasida muhokama qilingan tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishidagi eng dolzarb ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy ma'ruzalar materiallari kiritilgan.

To'plam talabalar, magistrantlar, katta ilmiy xodim izlanuvchilar va tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

k.f.d. A.J.Xoliqov

Nashr uchun mas'ul:

dots. Z.P.Raxmanova

Taqrizchilar:

prof. A.A.Soleyev
dots. R.M.Eshbo'riyev

MUNDARIJA

Husniddin Amrillayev Informatika fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda interfaol usullardan foydalanish samaradorligi	
Yuldosh G'aybulov, Amrillayev Husniddin Xususiy integrali parabola ko'rinishda bo'lgan kvadratik sistemani tuzish	
Eldor Xo'rozov. XVI asr epik she'riyatida Alisher Navoiy an'analari	
Ahmad Xasanov. "Lolazor" romanida badiiy xarakter talqini	
Sirojiddin Sharifov. "Muvozanat" romanida qahramon portreti	
Nilufar Tinchlikova. Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlarida Abdurahmon Jomiy timsoli	
Bobir Ruziboyev. Inson ruhiyatini aks ettirishda peyzaj tasvirining o'rni.....	
Oxista Xushnazarova. "Hotamnoma" asarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, o'zbek adabiyotiga ta'siri.....	
Charos Xushmurodova. Muhammad Alining "Shohrux Mirzo" tarixiy romanida metaforalar muhim uslubiy vosita sifatida.....	
Charos Xushmurodova. Muhammad Alining "Shohrux Mirzo" tarixiy romanida vulgarizmlarning qo'llanilishiga doir.....	
G'olibjon Nuraliyev. Tasviriy so'zlarning bugungi kunda o'rganilishi.....	
Bobur Sulaymonov. Istiqlof davridagi o'zbek tilining leksik sathi to'g'risida	
Yulduz Qurbonova. Dialogda personaj subyektiv munosabati shakllanishining pragmatik xususiyatlar	
Charos Xudaynazarova. Normurod Norqobilov qissalarida dialektizmlarning qo'llanish xususiyatlariga doir	
Ozoda Sharapova. Gazeta tilida qo'llanilgan leksik sinonimlarning o'ziga xos xususiyatlari	
Ruziboyeva Gulnoza. X.Doniyorov badiiy asar tili va uslubini bir aspektda o'rganishning tadqiqotchisi va targ'ibotchisi sifatida.....	
Egamberdiyeva Sitorabonu. Iborai masdari-murodifi jumlai payravi muftado (dar asosi asari badei).....	
Эльвира Ибатова. Ориентализмы в описании общественно-политической жизни в русскоязычных газетах Узбекистана (на примере материалов «Народное слово», «Самаркандский вестник», «Правда востока»).....	
Iroda Saidova. 2008 yil umumta'lim maktablarida davlat dasturi asosida moddiy texnik bazasining rivojlanishi to'g'risida.....	
Farida Xolkazakova. O'zbekiston va rossiya o'rtasidagi ta'lim sohasidagi hamkorlikni rivojlanishi.....	
G'ulomjon Yakubov. Yevropa ittifoqining tashkil etilishi tarixidan	
Севара Пардаева. Из истории первого музея туркестанского края	
Azamat Mardonov. O'rta asrlarda Movarounnahrda kon ishlarining rivoji.....	
Yigitali Umarov. Turkiston talabalarining XX asr 20-30-yillarda xorijdagi matbuotchilik faoliyati.....	
Sarvar Haydarov. O'zbekiston hududidagi dastlabki diplomatik munosabatlarning manbalarda aks ettirilishi.....	
Ilxom Fayzullayev Tabiatga estetik munosabatni kuchaytirishda estetik ong va madaniyatning funksional xususiyatlari	
Ilxom Fayzullayev. Tabiatga estetik munosabatni rivojlantirishda milliylik va umuminsoniylikning an'anaviylik hamda zamonaviylik jihatlari	
Zarnigor Yuldoshova. Konusda mujassamlashgan o'lchovlar Fur'e almashtirishining yig'ilishi haqida	
Inobat Ashirova. Silliqlik bo'lmagan yopiq chiziqlarda singulyar integral tenglama	
Шухрат Эгамбердиев. Функция Ляпунова или дискриминант Хилла.....	
Ислам Тагаев. О задаче Коши для системы уравнений Ламе в пространстве R^m	
Fayzullayev A. N., Payzillayev N. N., Yaqinlashish turlari va ularga doir natijalar.....	

INSON RUHIYATINI AKS ETTIRISHDA PEYZAJ TASVIRINING O'RNI

Bobir Ruziboyev

Mutaxassslik: 5A120101-Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) (1-bosqich)

Annotatsiya: *Peyzaj – inson ichki olami, kechinmalarini aks ettiruvchi muhim vositadir. Mazkur maqolada peyzaj, uning badiiy asardagi o'rni, inson ruhiyatini aks ettirishda muhim vosita ekanligi B.Xudoyberganovning "Avlodlar yo'li" romani misolida ilmiy kuzatilgan.*

Badiiy adabiyot inson ko'nglining mulkidir. Unda qalb sirlari kechinmalari turli vositalarda, turli yo'sinlarda gavdalanadi. Badiiy adabiyot turli yo'nalishlarga ega. Ulardan biri nasriy asarlar, xususan, romandir.

Bugungi kunda sermahsul ijod qilib kelayotgan Baxodir Xudoyberganovning "Avlodlar yo'li" romani o'ziga xos tasvir sujeti, kompozitsion vositalariga ega. Bu vositalar asarning badiiy saviyasi va qiyofasini yaratishga xizmat qiladi. Bunday tasvir vositalaridan biri peyzajdir. Peyzaj – tabiat tasvirlari elementlarining badiiy asarda ma'lum bir maqsadda qo'llanishi natijasida vujudga keladi. Unda yozuvchi ma'lum maqsadda asar kompozitsiyasiga tabiat tasvirlarini kiritadi. "Peyzajda inson hayoti uning his-tuyg'ulari bilan uyg'un holda beriladi"[4–29]. Bundan ko'rinadiki, peyzajlar badiiy asarlarning muhim kompozitsion unsuridir.

"Avlodlar yo'li" romanida bir qancha peyzaj tasvirlari keltirilgan. Masalan, "Osuda yoz oqshomida osmondagi son-sanoqsiz yulduzlar o'ta maftunkor jilvalanadi. Kunduzgi yumushlarning turmush tashvishlari-yu, beadoq ishlardan horigan odamlarning tashvishlari tingandek. Tun bag'rida oy balqigan osmon og'ushiga chorlayotgandek bo'laveradi" [1–3]. Ushbu parcha asarning birinchi qismining dastlabki satrlaridir. Bu orqali adib inson ruhiyatidagi osudalik, ko'ngil tinchligi, xotirjamlikni aks ettiradi. Asar qahramoni bo'lgan qariya va bolakayning kechinmalari tun tasvirida jamlangan. Hayotining sokin kunlarini o'tkazayotgan qariya o'tmish hayoti, unda ko'rgan, bilgan odamlarni, boshidan o'tgan turmushini yodga oladi. Son-sanoqsiz yulduzlar uning xotirasidagi eng yaxshi kunlarni anglatadi. Oy balqigan osmon uning xotiralarini jonlantiradi, qariyani xotiralar olamiga sayr qilish uchun chorlaydi. Hali hayotga endi qadam tashlayotgan bolakay esa son-sanoqsiz yulduzlarda o'zining cheksiz orzu-umudlari, niyatlarini ko'radi. Oy balqigan osmon og'ushiga, ya'ni sir-sinoatli uzun hayot yo'lga chorlayveradi. Hayotning bu tadrijiy qonuniyati tun tasviri bilan ifodalanadi. Adib "adabiyotning tuyg'ular, sezimlar, kayfiyatlar o'yini" ekanligini, "baqirishdan ko'ra shivirlash,... aytishdan ko'ra ishora qilish badiiyat uchun muhim" [2–298] ekanligini anglagan holda o'z romanida buni mahorat bilan qo'llay olgan.

Romanda keltirilgan quyidagi peyzaj so'ngan umidlar, orzularini qaytadan jonlantiradi: "Kuz keldi. Shimoldan esayotgan salqin shamol qovjirab ketgan barglarni o'ynatadi" [1–169]. Asar qahramoni Botir armiyadan qaytadi. U bobosining tarbiyasini olgan hayotning qiyinchiliklariga bosh egmaydigan inson. Uning hayoti kuzdek so'lg'in, sababi o'z otasidan mehr ko'rmaydi. Hayot yo'lini tanlashiga, o'z hayotini qurishiga otasi tomondan hech qanday rag'bat yo'q. Shu sababli u o'tib ketgan bobosi Egamberganni qo'msaydi. Uning orzu umidlari qovjirab ketgan barglarni eslatadi. Ular yashnab barq urishiga xayrixoh buvasi vafot etgan. O'z otasi Rahimboy esa shimoldan esayotgan shamol kabi farzandining umidlarini yakson qilishi mumkin. Adib shuning uchun ham qahramonlar ruhiyatini yorqin namoyon qiluvchi peyzaj tasvirini asar davomida qo'llaydi.

"Yozuvchi ijodkor uchun insonning ma'naviy – ruhiy bisotini anglash, inson qalbiga yo'l topish, qalbidagini tushunish, tushuntirish qiyin bo'lgan nozik, sirli-sehrli tuyg'u, kechinmalarni ifoda etish, ularning ma'nosini chaqish – mohiyatini ochish eng qiyin, ammo g'oyat muhim, balkim bosh masala" [5–255]. Asardagi avlodlar almashar ekan, yosh avlod vakillari asar o'rtasida kekxa avlod vakillariga aylanadi. Xususan, Rahimboy endi otasiga erkalik qilib yuruvchi yosh bola emas. Balki u endi bir necha oilali farzandlarning otasi. Adib tomonidan uning ruhiyati quyidagi peyzaj yordamida yorqin ochib berilgan: "Tun allamahol bo'lib qolgan. Ko'kda to'lin oy

suzib yuribdi. Atrof jim-jit osuda uyquda” [1–162]. Peyzajdan so’ng Rahimboy va uning xotini Safargullarning suhbatini keltiriladi. Unda kenja farzandlari Do’simmatning ichkilikka berilgani, juda kech kelishi, pand-nasihatlarining kor qilmayotganligi bayon etiladi. Shu o’rinda muallif nima uchun allamahol bo’lgan tunni va to’lin oyni keltirib o’tadi? Adibning peyzaj tasvirini berishdan maqsadi avlodlar almashganligi, otaning xatolari bolasida takrorlanayotganligini kitobxonga anglatmoqchi. Bu jumlada allamahol bo’lgan tun xatolarni to’g’rilashga juda kech bo’lganligini anglatga, ko’kda suzib yurgan to’lin oy har bir narsaning javobi borligini, ya’ni otaga qilingan munosabat farzanddan qaytishini ifodalaydi. “Badiiy adabiyot ko’ngil ishi bo’lgani uchun ham unda ulug’ va muqaddas tuyg’ular bilan bir qatorda, tuban hissiyotlar, nozik injiqliklar, kutilmagan to’lg’amlar bo’lishi mumkinligi tabiiydir” [2–298]. Bu holatni Rahimboy obrazida kuzatish mumkin. Adib shu tarzda qahramon ruhiyatini yoritishda peyzajdan mahorat bilan foydalanadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotshunos olim L.I.Timofeevning aytishicha “obraz – to’qima yordami bilan yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni chog’da, aniq manzarasidir” [3–198]. B.Xudoyberganov shuni his qilgan tarzda hayotning muhim tomonlarini yoritishga harakat qiladi. Qahramonlarning ruhiyati, dunyoqarashi, hayotini tasvirlash asnosida peyzajlarga keng urg’u beradi. Asarda peyzajlar muhim badiiy “yuk” olganligini buning isbotidir.

ADABIYOTLAR

1. Xudoyberganov B. Avlodlar yo’li. – T.:Sharq,2016.
2. Yo’ldoshev Q. Yoniq so’z. – T.:Yangi asr avlodi, 2006.
3. Тимофеев Л.Н. Основы теории литературе. – М., Просвещение, 1966.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.:O’qituvchi.1979.
5. Normatov U. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007.

Ilmiy rahbar-f.f.n., dots. A.Nosirov

Adabiyotlar

1. Джон Д. Дэниелс, Ли. Х. Радеба, Международный бизнес, -Москва: Дело, 1994 г.
2. «Европейское общество – ваш сосед», информационная брошюра Комиссии.
3. Валютный союз по-европейски / Вл. Крайний // Интерфакс-АиФ. - 1996 №16.
4. Евро - валюта “Соединенных Штатов Европы” / М. Погорелый // Ревизор 1996 №9.
5. <http://www.europa.eu.int/> Официальный сайт ЕС в Интернет
6. <http://www.euro.eu.int/> Евро.